

QO'SHISH VA AYIRISHNI HAYOTIY MISOLLAR ASOSIDA O'RGATISH

Xasanova Maftuna Rashid qizi,

Sh.Rashidov tumani 9-maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'shish va ayirish amallarini hayotiy misollar asosida o'rgatishning pedagogik va metodik jihatlari yoritilgan. Maqolada matematik tushunchalarni kundalik hayot bilan bog'lash orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni ongli o'zlashtirish va ularni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika o'qitish metodikasi, qo'shish, ayirish, hayotiy misollar, mantiqiy fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv.

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularning bilimlarni hayotda qo'llay olish kompetensiyalarini rivojlantirishni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan munosabati, fanga qiziqishi va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Shu sababli mazkur bosqichda fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Matematika fani boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Matematika fani doirasida qo'shish va ayirish amallari eng dastlabki va muhim tushunchalar sirasiga kiradi. Amaliyotda ko'plab o'quvchilar ushbu amallarni mexanik tarzda bajaradi, biroq ularning mazmun mohiyatini to'liq anglab yetmaydi. Bunday holatlarning oldini olishda qo'shish va ayirishni hayotiy misollar asosida o'rgatish samarali usul hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda qo'shish va ayirish amallarini o'rgatish o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim. Ushbu yoshdagi bolalar uchun aniq, ko'rgazmali va hayotiy misollar orqali berilgan bilimlar tezroq o'zlashtiriladi.

Qo'shish va ayirish eng qadimiy matematik amallardan bo'lib, ularni odamlar hatto yozuv ixtiro qilinishidan oldin tosh va tayoqchalar bilan bajargan. Qo'shish va ayirish matematikaning eng sodda va muhim arifmetik amallaridan hisoblanadi. Qo'shish – bu bir nechta to'plamlarni birlashtirish amali bo'lsa, ayirish - berilgan to'plamdan ma'lum qismini ajratib olish jarayonidir. Ushbu tushunchalarni faqat sonlar orqali emas, balki real buyumlar, predmetlar va kundalik vaziyatlar orqali tushuntirish o'quvchilarning mavzuni chuqur anglab yetishiga yordamlashadi.

Hayotiy misollar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning bilimlarni ongli o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Masalan ularning kundalik hayotida uchraydigan hayotiy vaziyatlar - bolalar sonini aniqlash, o'yinchoqlarni sanash, biror nima sotib olish, olgan baholarini hisoblash, mevalar, shirinliklar ishtirokida matematik amallar bajarish kabi misollar orqali qo'shish va ayirishni tushuntirish mumkin.

Misol tariqasida, quyidagi vaziyatni keltirish mumkin:

“Maftunada 4 ta kitob bor edi. Unga yana 3 ta kitob sovg'a qilishdi. Maftunada jami nechta kitob bo'ldi?” Ushbu topshiriq orqali qo'shish amali hayotiy vaziyat asosida izohlanadi. Yoki “Sinfda 24 nafar o'quvchi bor edi. Ulardan 10 nafari tashqariga chiqdi. Sinfda nechta o'quvchi qoldi ?” kabi masala ayirish amalini tushuntirishga xizmat qiladi. Bunday misollar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va matematik tushunchalarni real hayot bilan bog'lash imkonini beradi.

Ayirish va qo'shishni hayotiy misollar orqali o'rgatishda didaktik o'yinlar va ko'rgazmali vositalarning tutgan o'rni katta. Sanoq cho'plari, rangli kartochkalar, rasmlar, predmetlar, interaktiv topshiriqlar o'quvchilarning faolligini oshirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilar nafaqat hisoblashni, balki

mantiqiy fikrlashni, solishtirishni va xulosa chiqarishni ham o'rganadilar. Bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Qo'shish va ayirishni hayot bilan bog'lab o'rgatishda o'qituvchining metodik mahorati muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarni faollikka undashi, ularning mustaqil fikr bildirishiga imkon yaratishi lozim. Shuningdek, savol-javoblar, muammoli vaziyatlar, guruhli ishlar, o'yin texnologiyalaridan foydalanishi va amaliy mashqlar orqali darsni tashkil etish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi tomonidan berilgan hayotiy topshiriqlar o'quvchilarning o'z bilimlarini real vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi va kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qo'shish va ayirish amallarini hayotiy misollar asosida o'rgatish boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik savodxonligini oshirishda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu yondashuv asosida o'quvchilar matematik tushunchalarni ongli ravishda o'zlashtiradi, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va bilimlarni kundalik hayotda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladi. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim jarayonida hayotiy misollarga asoslangan o'qitish usullaridan keng foydalanish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova K. , Matjonov S. ,G'afforova T. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" , Toshkent: O'qituvchi 2018.
2. Karimova D.X. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi", Toshkent 2020.
3. G'afforova T. "Boshlang'ich sinf matematika darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar", Toshkent 2019.
4. Saidov O. "Matematikani o'qitishda hayotiy masalalardan foydalanish." Xalq ta'limi jurnali, 2020 3-soni.
5. To'xtayeva H. "Boshlang'ich sinflarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodlari". Toshkent 2019.